

## «Ислом маърифати» маънавий-маърифий, илмий-адабий журналининг илк сони нашрдан чиқди



10:20 / 03.10.2023 672

Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти муассислигида «Ислом маърифати» илмий-адабий, маънавий-маърифий журнали таъсис этилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси илмий нашрлар рўйхатидан ўтган «Ислом маърифати» журналининг илк нишона сони нашрдан чиқди.

Қуръоншунослик, Ҳадисшунослик, Фиқҳ, калом илми, Илоҳиёт, Ислом тарихи ва манбашунослик, Матншунослик ва адабий манбашунослик, Мумтоз шарқ адабиёти ва манбашунослик, Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштира тилшунослик ва таржимашунослик, Диншунослик, Маънавий тарбия, Фалсафа фанлари журналнинг ихтисослик соҳалари ҳисобланади.

Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институтининг «Ислом маърифати» номли илмий-таҳлилий журнали таълим ва илмий-тадқиқот

марказлар ходимлари, маҳаллий ва хорижлик тадқиқотчилар, олимлар, мутахассислар ҳамда мустақил изланувчиларнинг мақолаларини қабул қилади.


Журналга ислом тарихи, исломшунослик, диншунослик, манбашунослик ва матншунослик, ислом ҳуқуқи, фароиз, ақоид ва калом илми, филологик тадқиқотлар, ислом фалсафаси, шунингдек, диний-маърифий соҳаларига оид илмий мақолалар қабул қилинади.

Ўзбек, рус, инглиз, араб ва турк тилларидаги мақолаларни эълон қиладиган мазкур журнал йилда тўрт марта нашр қилинади. Аҳамиятга молик тадбирлар ёки муҳим саналар муносабати билан зарурат юзасидан қўшма сон сифатида чоп этилиши мумкин. Мазкур журналда мақоласи чоп этилган муаллифларга қалам ҳақи тўланмайди.

Таҳрир ҳайъати институт ва турдош бошқа таълим муассалари ва илмий-тадқиқот марказларида фаолият олиб бораётган олимлар жамоасидан иборат.


**Журнал ҳақида:** <https://oliymahad.uz/jurnal-haqida>

**Журналга мақола бериш:** <https://oliymahad.uz/islommarifati>









Nuriddin XOLIQAZAROV,  
O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faxriy doktori

## ILMU MA'RFAT - MUSTAHKAM TAYANCHIMIZDIR

*Bismillahir-Rohmanir-Rohim!  
Alloh taolaga cheksiz hamdu sanolar,  
Payg'ambarimiz Muhammad mustafo  
(sallallohu alayhi va sallam)ga behisob  
salavatni salomlar bo'lsin!*

Alhamdulillah, so'ngi yillarda islom ilmlarini tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlohotlardan yurtimiz aholisi ham, xoritlik ma'rifatparvar insonlar ham mamnun. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 50 yildan ziyod tarixga ega Toshkent islom institutida yuzlab talabalar tahsil olmoqda. Ularga ilm o'rgatayotgan 93 nafar o'qituvchi orasida fan doktorlari, fan nomzodlari, falsafa doktorlari va magistr ilmiy darajasiga ega bo'lganlar bor. 1971-yil 1-oktyabrdan faoliyat boshlagan, sobiq ittifoqda yagona oliy islom ta'lim maskani bo'lgan Toshkent islom instituti o'z vaqtida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Afg'oniston, Yaman, Vetnam, Bolgariya kabi mamlakatlardan kelgan talabalar ham tahsil olishgan. Shuningdek, Ahmad Qodirov, shayx Tal'at Tojiddin, shayxulislam Oллоhshukur Poshshozoda hamda yurtimizdan shayx Abdulaziz Mansur, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdurashid qori Bahromov, shayx Usmonxon Temurxon o'g'li kabi mashhur olimlar, din va davlat arboblari ushbu ta'lim maskanining bitiruvchilari hisoblanadi.

Institutning asosiy maqsadi, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, shar'iy ilmlarini puxta egallagan, insonparvarlik va Vatanga

o'rganish hamda yurtimizda diniy ta'lim muassasalarida tatbiq etish kabilar juda muhim vazifalardir.

Bugungi kunda Respublikada faoliyat olib borayotgan oliy va o'rta maxsus diniy miy kadrlar bilan ta'minlash, mutaxassislarining ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirish, Qur'on, tafsir, kalom, hadis va fiqh ilmlari mutaxassislari bo'yicha magistrant, ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadida juda katta ishlohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 50 yildan ziyod tarixga ega Toshkent islom institutida yuzlab talabalar tahsil olmoqda. Ularga ilm o'rgatayotgan 93 nafar o'qituvchi orasida fan doktorlari, fan nomzodlari, falsafa doktorlari va magistr ilmiy darajasiga ega bo'lganlar bor.

1971-yil 1-oktyabrdan faoliyat boshlagan, sobiq ittifoqda yagona oliy islom ta'lim maskani bo'lgan Toshkent islom instituti o'z vaqtida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Afg'oniston, Yaman, Vetnam, Bolgariya kabi mamlakatlardan kelgan talabalar ham tahsil olishgan. Shuningdek, Ahmad Qodirov, shayx Tal'at Tojiddin, shayxulislam Oллоhshukur Poshshozoda hamda yurtimizdan shayx Abdulaziz Mansur, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdurashid qori Bahromov, shayx Usmonxon Temurxon o'g'li kabi mashhur olimlar, din va davlat arboblari ushbu ta'lim maskanining bitiruvchilari hisoblanadi.

Institutning asosiy maqsadi, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, shar'iy ilmlarini puxta egallagan, insonparvarlik va Vatanga

sadoqat ruhida tarbiya topgan, yuksak ma'naviy fazilatlarga ega, diniy va dunyoviy fanlarni puxta o'zlashtirgan oliy ma'lumotli islomshunos, imom-xatib va arab tili o'qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir. Darhaqiqat, din ilmlarini puxta o'rganish muhim ekani Hamza Navoiy quyidagicha ta'riflaganlar:

*Bu din ilmi ki somam qildi tahrir,  
Ezur fih qo' haddo so' ngro tahrir.*

*Chu takmi o'ldi bu uch ilm, sen bil,*

*Yana har ilm maylin qilma, yo qil.*

Azaldan ilmu ma'rifat markazi bo'lib kelgan zaminimizda ilm dargohlariga juda katta e'tibor qilinmoqda. Mukammal ilm o'chog'i hisoblangan yurtida ilimga yangicha yondashuv, o'zgaracha kuch bilan kirishilsa, u darhol garkirib, rivojlanib ketadi.

Islom dini jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday ilmiy tadqiqot va yangilikni go'lab-quvvatlaydi. Buni ayati karimalar va hadisi shariflar ham tasdiqlaydi. Qur'oni karimda "ilm" so'zi 811 o'rinda turli ma'nolarda keladi. Jumladan, ilm egalari shunday madh etiladi: **"Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (halal) daraja (martaba) larga ko'tarur"** (Mujadala surasi, 11-oyat).

Hazrati Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va sallam) ko'p hadisi shariflarida ilm olishga da'vat qilganlar. **"Avalo, olim bo'!"** **Loaql, ta'lim oluvchi yoki ularni sevuvchi yoxud ularga ergashuvchi bo'lgin. Ammo beshinchi odam (mazkur to'rt xistatdan tashqaridag) bo'imginiki, halok bo'lursan!"** (Imom Bayhaqi rivoyati), deya ilmining darajasi naqadar ulug' ekani ifoda etganlar.

Yana bir hadisi sharifda Hazrati Payg'ambarimiz (sallallohu alayhi va sallam): **"Kim dunyoni xohlasa, tijorat qilsin, kimki oxirati xohlasa, zobid bo'lsin, kimki ikkisini ham xohlasa, ilm olsin"**, deya marhamat qilganlar.

Toshkent islom instituti jamoasi qariyb ellik yildan beri dinimiz ta'limotida ko'rsatilgan ana shu vazifani bajarish yo'liga kamarbasta bo'lib kelmokda. O'tgan

yillar davomida institutning o'quv-tarbiya jarayonlari takomillasuvi, pedagogik va ilmiy salohiyati yanada taraqqiy etishi, moddiy-texnik bazasini kengaytirish, talabalar sonini oshirish bo'yicha yangi yangi dasturlar ishlab chiqildi. Hozirda institut naqat mamlakatimizdagi, balki Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham e'tibori ilm dargohiga aynalib ulgurdi. Buni institutning xalqaro maydondagi faoliyati ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Endilikda esa, institut jamoasi yana bir sayrli ishga qo'l urgani barcha ilm-ma'rifat ahli mamnun etishi tabiiy. Toshkent islom instituti muassisligida ilmiy-tadqiqot ishleri, yurtimiz olimlari tadqiqotlarining ilmiy-tahlil maqolalarini nashr etishga mo'ljallangan ushbu "Islom ma'rifati" nomli ilmiy-adabiy, diniy-ma'rifiy jurnali ta'sis qilindi, uning birinchi soni chop etilishi tarixiy voqeadir. Yangi nashr islom dinining asl mohiyatini anglatish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, ulamolarning ihsanliq yordamini qaytirmoq uchun olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yoritish yo'lidagi yangi minbar bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, jurnalda Qur'on va hadis ilmlari, fiqh, kalom, islom tarixi, ilmiy-ma'rifat, fiqh, kalom, islom tarixi, ilmiy-ma'rifat, fiqh, kalom, islom tarixi, ilmiy mabalar tabli va boshqa diniy-ma'rifiy mavzularda maqolalar chop etilib, xalqimiz ma'rifati yuksalishi, to'liq ilmiy bilim olishiga zamin bo'ladi. Bundan tashqari, yurtimiz ilmiy salohiyati, ajdodlarimizning boy ma'rifiy merosini xalqimizga taqdim etishga katta imkon beradi.

Bunday ilmiy jurnal bugungi jarayonlarda islom dinining sol mohiyatini ilmiy-tahlil qilib berish va keng jamoatchilikka yetkazishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xalqaro jurnal boshqa davlatlardagi olim va izlanuvchilar bilan ilmiy hamkorligimizni yanada mustahkamlashda o'ziga xos minbar bo'lib xizmat qilishini umid qilamiz.

Alloh taolo "Islom ma'rifati" jurnalini barchamiz uchun mubarak qilsin, jurnal ijodkorlariga Yarategandan kuch-quvvat, ilmlariga baraka tilab qolaman.



Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV,  
Toshkent islom instituti rektori,  
siyosiy fanlar doktori, professor

## PROFESSIONAL TA'LIM - YANGI ISLOHOTLAR ARAFASIDA

Bugungi kunda institutda jami 5 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitilmoqda. Bular: Islom tarixi fanlari, Haddis va islomshunoslik fanlari, Tafsir, Tahfizul Qur'an va ijtimoiy fanlar kafedralari faoliyat ko'rsatmoqda. Talabalarga 93 ta fan o'qitilmoqda. Ularga bilim o'rgatayotgan 93 nafar o'qituvchi orasida fan doktorlari, fan nomzodlari, falsafa doktorlari va magistr ilmiy darajasiga ega bo'lganlar bor. 1971-yil 1-oktyabrdan faoliyat boshlagan, sobiq ittifoqda yagona oliy islom ta'lim maskani bo'lgan Toshkent islom instituti o'z vaqtida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz, Rossiya, Ozarbayjon, Tatariston, Afg'oniston, Yaman, Vetnam, Bolgariya kabi mamlakatlardan kelgan talabalar ham tahsil olishgan. Shuningdek, Ahmad Qodirov, shayx Tal'at Tojiddin, shayxulislam Oллоhshukur Poshshozoda hamda yurtimizdan shayx Abdulaziz Mansur, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Abdurashid qori Bahromov, shayx Usmonxon Temurxon o'g'li kabi mashhur olimlar, din va davlat arboblari ushbu ta'lim maskanining bitiruvchilari hisoblanadi.